



Political and legal culture as a factor of sustainable development

Khakim RASULOV¹

Termez State Pedagogical University

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2023
Received in revised form
15 August 2023
Accepted 25 August 2023
Available online
15 September 2023

Keywords:

political culture,
legal culture,
social and political stability,
state,
social development,
political and legal system,
basis.

ABSTRACT

The article analyzes the political and legal culture as the most important factor that ensures the stability of the political and legal system of society. The tasks were also set to assess the features of the social, political and legal stability of society, the level and trends of political and legal stability, the rationale for the fact that a state without a political and legal culture cannot achieve peace and stable development of its citizens. It is based on the fact that the political and legal culture is the main factor in the stable development of relations between public authorities and citizens.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss7/S-pp314-322>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Siyosiy va huquqiy madaniyat – barqaror taraqqiyot omili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

siyosiy madaniyat,
huquqiy madaniyat,
ijtimoiy-siyosiy barqarorlik,
davlat,
jamiyat taraqqiyoti,
siyosiy-huquqiy tizim.

Mazkur maqolada siyosiy-huquqiy madaniyat jamiyat siyosiy-huquqiy tizimi barqarorligini ta'minlovchi eng muhim omil sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy barqarorligining xususiyatlari, siyosiy-huquqiy barqarorligi darajasi va tendensiyalarini baholash, siyosiy-huquqiy madaniyatsiz davlat fuqarolarning tinchligiga va barqaror taraqqiyotiga erisha olmasligini asoslash maqsadlari qo'yilgan. Davlat hokimiyati bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning barqaror rivojlanishida siyosiy va huquqiy madaniyat asosiy omil vazifasini bajarishi ko'rsatib berilgan.

¹ PhD, Associate Professor, Termez State Pedagogical University. E-mail: rhm1973@mail.ru

Политическая и правовая культура – фактор устойчивого развития

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

политическая культура,
правовая культура,
общественно-
политическая
стабильность,
государство,
общественное развитие,
политико-правовая
система.

В статье рассматривается политико-правовая культура как ключевой фактор, обеспечивающий устойчивость политической и правовой системы общества. В ней также оцениваются особенности социальной, политической и правовой стабильности, анализируются уровень и тенденции политико-правовой устойчивости. Статья аргументирует, что государство не может достичь мира и стабильного развития без развитой политико-правовой культуры. Основная идея заключается в том, что политико-правовая культура играет важную роль в формировании стабильных отношений между органами государственной власти и гражданами.

KIRISH

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik tushunchasi turg'unlik hodisasidan, ya'ni jamiyat rivojidagi dinamikaning sekinlashishi yoki tezlashishidan farqlanadi. Jamiyat barqarorligining qarama-qarshi tomoni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotning beqarorligidir. Shu ma'noda insoniyatning butun siyosiy genezisi barqarorlik yoki beqarorlik tendensiyalari doirasida rivoj topib kelgan siyosiy jarayonlarning majmuidir, degan xulosani qilish mumkin.

MATERIAL VA USULLAR

Maqolani tayyorlashda o'rganilayotgan muammoning nazariy tahliliga oid G'arb olimlari, shuningdek, mamlakatimiz olimlarining asarlari, xususan, dissertatsiya tadqiqotlarida ilgari surilgan nazariy xulosa va g'oyalarga tayanildi. O'rganilayotgan muammo ilmiy tadqiqotning siyosiy va qiyosiy tahlil, tizimlilik, mantiqiylik va tarixiylik, ilmiylik va xolislik kabi metodlari vositasida yoritildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Muammoga ana shu jihatdan qaralganda barqarorlikni ta'minlovchi omillarni shartli ravishda siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy va ijtimoiy-madaniy omillarga bo'lish mumkin. Shuningdek, ularning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini hisobga olish lozim. Bu borada rus olimlari Y.V. Irxin, V.D. Zotov va L.V. Zotovalar jamiyat siyosiy barqarorligining asosiy shartlari va omillarini quyidagicha ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar. Ya'ni: jamiyat barqarorligini ta'minlash siyosiy-huquqiy madaniyat omilini 1) jamiyat siyosiy-huquqiy tizimining samarali faoliyat yuritishi va uning dolzarb vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishi; 2) jamiyatning davlat institutlari faoliyatiga ishonchining zarur darajasi, ya'ni, ko'pchilik manfaatlarini munosib ifoda eta olishi; 3) siyosiy-huquqiy tizim qonuniyligi; 4) jamiyat siyosiy-huquqiy barqarorligining zarur shart-sharoitlarni yaratuvchi tizimning mavjudligi; 5) fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash, siyosatda ishtirok etuvchilar va qatnashuvchilar o'rtasida maqbullikni topish; 6) markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni oqilona taqsimlash; 7) davlat va jamiyatni qonunlar, an'analar, axloq va diniy me'yorlarga muvofiq boshqarish hamda ularning faoliyatini optimallashtirishga erishishdan iborat. Shundagina jamiyat barqarorligini ta'minlashda siyosiy va huquqiy madaniyatining o'zaro ta'siri va uyg'unligiga erishish mumkin [1. C. 391].

Qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy jamiyat siyosiy-huquqiy tizimini mustahkamlash va uning barqarorligiga erishish uchun axloqiy (siyosiy va huquqiy) qoidalarni ishlab chiqqan. Uning ta'kidlashishcha "Agar jamiyat qonunlar yordamida boshqarilib, jazolash orqali tartibot ta'minlansa odamlar jazolanishdan qochadi va or-nomusni his qilmaydi. ... qadriyatlar orqali tartibot olib borilsa, hamma or-nomusni his qiladi, halol va sofdil odamga aylanadi" [2. C. 170]. Mazkur prinsiplar zamonaviy Xitoyning bugungi taraqqiyotidan kelib chiqib, jamiyat barqaror rivojlanishining asosida yaratilgan, desak xato bo'lmaydi. Yana bir o'rinda Konfutsiy aytadi: "Osoyishtalik yo'q mamlakatga bormang; tartib yo'q davlatda yashamang" [3. C. 90]. Darhaqiqat, jamiyat siyosiy-huquqiy tizimida barqarorlik ta'minlanmagan davlatda tinchlik va osoyishtalik bo'lmaydi. Konfutsiyning bu o'g'itlari oddiy so'zlardek ko'rinsa-da, bugungi global ziddiyatlar davrida nihoyatda ahamiyatlidir.

Insoniyat XX asrning so'nggi o'n yilligiga kelib, dunyo yagona jamiyat sifatida to'la barqaror rivojlanishi mumkinligini anglab yetdi. "Bizning kunlarimizga qadar, insoniyat jamiyati yaxlit bir yagona jamiyat sifatida mavjud emas edi" [1. B. 576], – deb yozgan edi sotsiolog Entoni Giddens. Shu bois, jamiyat barqarorligi fenomeni aksariyat hollarda tinchlik va xavfsizlik tizimining ta'minlanishi bilan bog'liq hodisa sifatida qaraladi. Insoniyat tarixi taraqqiyot bir tekisda hech qanday nizo va xavf-xatarlarsiz yuz bermasligini qayta-qayta isbotlab kelmoqda. Taraqqiyotda uzilishlar, sakrashlar davri ham bo'lgan. Lekin bugungi kunda insoniyatga u yoki bu jihatdan xizmat qiladigan kuchlar nisbatini aniq tasavvur qilish mushkul jarayondir. Hozirgi murakkab davrda jamiyatni yangilash tarafdori bo'lgan kuchlar bilan birga, unga qarshi bo'lgan kuchlarning mavjudligi hammaga ma'lum. Umuman insoniyat taraqqiyoti ana shunday turli manfaatlar to'qnashuvi va qarama-qarshiligi asosida davom etib kelmoqda.

Bugungi global o'zgarishlar dunyoning turli mamlakatlarida ziddiyatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Bu kabi "salbiy jarayonlarga befarq qaramaslikning muhim omillaridan biri – mamlakatimiz yoshlarining ongi, dunyoqarashi va tafakkurida ularning yuzaga kelmasligining oldini olishdan iborat. Buning uchun ularning siyosiy madaniyatini rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda" [5. B. 11].

Muammoning ijtimoiy barqarorlik bilan bog'liq xususiyatlarini o'rgangan rus tadqiqotchisi Y.K. Shcherbakov siyosiy-huquqiy madaniyatni ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirish, jamiyatda qonun va tartibni o'rnatish uchun shaxsning ongi va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan maxsus siyosiy vositalar va umumiy ijtimoiy huquqiy hodisalar tizimi [6. C. 8] sifatida baholaydi. Professor N. Jo'rayev siyosiy madaniyat fenomeniga jamiyat barqaror taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa sifatida qarab, "mamlakatimizda vujudga kelayotgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarishdagi uzluksiz jarayon umumxalq va umumdavlat manfaati yo'lidagi qattiqqo'llik, talabchanlik va qat'iy intizom natijasidir", [7. B. 365] deb baho beradi.

Agar bu murakkab vazifalaridan kelib chiqiladigan bo'lsa, siyosiy madaniyatni shakllantirish va uni doimo takomillashtirishning qator omillari mavjud. Bu omillar mamlakatning barqaror rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarini izchillik bilan taraqqiy ettirish vazifalarini qamrab oladi. Bu vazifalarni amalga oshirish jamiyatning bunyodkorligi, fuqarolarning fidoyiligi, shu bilan birga ularning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatining mavjud taraqqiyot bosqichiga qay darajada javob berishiga bog'liq. Bu: a) fuqarolardan davlat oldida, umumxalq manfaatlarini yo'lida birlashuviga erishish vazifasini qo'yadi; b) ularning har bir ma'lum bir ijtimoiy tabaqaga mansubligini hisobga olgan holda manfaatlarini o'zaro

uyg'unlashtirishni ham taqozo etadi; v) mamlakat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy omillar, shu bilan bir qatorda siyosiy omillar bilan ham bog'liq, bo'ladi. Agar jamiyatning iqtisodiy imkoniyatlari yetarli darajada mavjud bo'lsa-yu, siyosiy barqarorlik bo'lmasa, mamlakatda ulardan samarali foydalanib ham bo'lmaydi. Chunki siyosiy beqarorlik taraqqiyot imkoniyatlarini barbod qiladi va iqtisodiy inqirozlarga olib keladi. Shu ma'noda tadqiqotchi A.Jalilovning quyidagi xulosalarini o'rinli deb hisoblash mumkin. Ya'ni, "siyosiy madaniyat o'zining "ko'rinmas qo'llari" orqali siyosiy tizimning barqaror bo'lishiga imkoniyat ham yaratib berishi mumkin, o'z navbatida mazkur tizim eroziyasiga, ya'ni asta-sekin yemirlishiga yetaklashi tabiiy holdir" [8. B. 19].

Umuman olganda, jamiyat barqarorligining asosiy siyosiy omillariga turli xil siyosiy va huquqiy institutlar orqali fuqarolarning o'z manfaatlarini, huquqlari, erkinliklarini ifoda etish, umumlashtirish, himoya qilishda faol ishtirok etishini ta'minlaydigan siyosiy hokimiyatning demokratik rejimi hamda fuqarolik jamiyati kiradi. Davlat va munitsipal institutlarning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi vazifasi aholining asosiy guruhlari manfaatlarini tengligini ta'minlashda, jamiyatdagi turli ziddiyatlarning o'z vaqtida bartaraf etilishida, demokratik yo'l bilan saylangan, samarali va qonuniy siyosiy hokimiyatning umuminsoniy demokratik qadriyatlarga asoslangan siyosiy va huquqiy madaniyatini tashkil etishda o'z ifodasini topadi. Global dunyoda ichki beqarorlik, jamiyatda fuqarolar tengligining ta'minlanmaganligi sababli ijtimoiy noroziliklar girdobidan chiqmayotgan, ba'zan, esa bu noroziliklar davlat to'ntarishlarigacha olib kelayotgan mamlakatlar ham borligini kuzatish mumkin.

Dunyodagi har bir xalq taraqqiyotida o'z maqsad va manfaatlariga ega. Ana shu manfaat va maqsadlar birligi xalqni millat, mamlakat sifatida birlashtirib turadi. Lekin dunyo siyosatida ma'naviy omilning, iqtisodiy imkoniyatlarning o'zi yetarli emas, balki, eng avvalo, siyosiy-huquqiy tizimning barqarorligiga asoslangan demokratik taraqqiyot belgilovchi ahamiyatga egadir. "Davlatning huquqiy tizimida tartib bo'lmasa-da, ijtimoiy rivojlanishning na iqtisodiy, na siyosiy vazifalari muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin emas" [9. C. 94]. Bu omillar mamlakat taraqqiyotini, ijtimoiy muhitning barqarorligini hamda dunyodagi o'rnining darajasini ifoda etadi. Bugungi dunyo esa, ana shunga intilmoqda. Tadqiqotchi A.Sultonov to'g'ri ta'kidlaganidek, "...ayrim mamlakatlarning davlat boshqaruvida madaniyat omili yetarlicha namoyon bo'lmayotganligi tufayli ularda mavjud siyosiy hokimiyatga qarshi turli "rang" va fasldagi destruktiv harakatlar vujudga kelib, bu boshqa xalqlar va davlatlarning barqarorligi va taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda" [10. B. 3]. Jamiyatda barqaror siyosiy-huquqiy tizim qaror topishi uning davlat bilan konsensus asosida yashashiga bog'liq bo'lib, unda kechadigan "ijtimoiy munosabatlar ijobiy o'zgarib borishi natijasida an'anaviy jamiyatdan fuqarolar faol bo'lgan, fuqarolik jamiyati va siyosiy institutlar faoliyati samarali bo'lgan zamonaviy jamiyatga o'tib boriladi" [11. C. 21].

Umuman olganda, barqarorlik hayotning barcha sohalariga tegishli. Ushbu hodisa jamiyatni strukturalash – gorizontaal va vertikal, uning differentsiatsiyasi – tegishli jamoalar, ijtimoiy guruhlar va tabaqalarning o'ziga xos manfaatlariga ega shakllanishi, turli manfaatlar hamda siyosiy tashkilotlar tomonidan aks ettirilishi bilan bog'liq. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, siyosat uchun jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish uning barqarorligini ta'minlashning eng muhim omilidir.

Boshqacha aytganda, barqarorlik hodisasi ijtimoiy tizimning yaxlitligini saqlashda namoyon bo'ladi. Bugungi siyosiy fanlarda asosiy e'tibor barqarorlik muammosini o'rganishda taraqqiyotga xizmat qiluvchi ijtimoiy g'oyalarni yo'q qilishga emas, balki, bu boradagi ijtimoiy ustuvorliklar va xatti-harakatlardagi evolyutsion o'zgarishlarni o'rganishga qaratilmoqda. Ya'ni, barqarorlik hodisasiga "ijtimoiy integratsiya" kontekstida qaralmoqda. Integratsiya omillariga qarashlar turlicha. Masalan, E. Dyurkgeym, G. Veyber, V. Pareto kabi G'arb olimlari integratsiya jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy qadriyatlar va normalar asosida sodir bo'ladi, deb hisoblagan. Zamonaviy funksionalistlar, xususan T. Parsons, integratsiya universal huquqiy tizim, ixtiyoriy birlashmalar, jamiyat a'zolarining huquqlarini kengaytirish va boshqalar kabi mexanizmlar bilan ta'minlanadi, deb hisoblaydi [12].

Mazkur hodisalarni inkor etmagan holda shuni ta'kidlash mumkinki, jamiyat siyosiy-huquqiy tizimining barqarorligi fuqarolarining siyosiy-huquqiy madaniyati darajasi bilan belgilanadi desak, xato bo'lmaydi. Siyosiy madaniyat rivojlanishining ahamiyati va siyosiy jarayonlardagi o'rnini tadqiq etgan professor S. Otamuradov uning siyosiy ongni tartibga solish funksiyasiga e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, siyosiy madaniyat "siyosiy beqarorlikning yuzaga kelish omiliga aylanmasligining oldini olishga ijobiy ta'sir o'tkazadi" [5. B. 5].

Rossiyalik olimlar M.S. Negrova, S.D. Savin siyosiy barqarorlik omillarini tahlil qilib, barqarorlikka olib boruvchi harakatlantiruvchi kuch nima bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi turli yondoshuvlarga e'tibor qaratadi. Unga ko'ra: hokimiyatni ajratish, barqarorlikning asosiy omili sifatida (Sh.L. Monteske), ijtimoiy hissiyot (O. Komte), ijtimoiy harakatchanlik va elitaning aylanishi (V. Pareto), ijtimoiy nazorat (T. Parsons), ijtimoiy institutlarning barqarorligi, hokimiyatning samaradorligi va qonuniyligi (S.M. Lipset), madaniy me'yorlar va qadriyatlar (T. Parsons), konstitutsiyaviy tuzum (E. Zimmerman), o'rta sinf, fuqarolik jamiyati va boshqalardan iboratdir. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu omillarning barchasi bir-biriga zid emas, balki barqarorlashuv jarayonining umumiy xususiyatlarini to'ldiradi [13. C. 240].

Shunday qilib, jamiyatning siyosiy tizimi davlat va boshqa ijtimoiy elementlarning o'ziga xos birligi sifatida, ob'yektiv ravishda turli xil siyosiy funksiyalarga ega. Ammo ma'lum bir jamiyatda hukmron bo'lgan maqsad, ideallar atrofida, eng asosiysi – siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish, uni ushlab turish, ishlatish va u bilan bog'liq qadriyatlar atrofida birlashadi. Jamiyat siyosiy va huquqiy tizimi shu kabi normalar doirasida ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladi. Siyosiy hokimiyatni sezilarli darajada o'zida ifoda etadi va jamiyatda muayyan munosabatlarni shakllantiradi.

Bugun mamlakatimizda jamiyat siyosiy-huquqiy tizimi barqarorligini ta'minlash omillaridan biri – aholining siyosiy-huquqiy madaniyatining darajasiga bog'liq hodisa sifatida qaralmoqda. Bu boradagi islohotlar "jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish", "shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalari"ning ustuvorligi, "yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati" prinsiplariga asoslanmoqda [14].

Shu ma'noda siyosiy va huquqiy tizimning barqarorligi, jamiyat uning madaniyati, fikrlar, bilimlar, qadriyatlar hamda boshqa komponentlarni o'zida mujassamlashtirgan siyosiy tizimga ega demokratik davlatda qaror topadi. Ana shunday davlatda siyosiy hokimiyat butun bir tizim barqarorligini ta'minlay oladi. Ko'rinib turibdiki, siyosiy va huquqiy tizimning barqarorligi nafaqat ijtimoiy manfaatlar, balki siyosiy-huquqiy

madaniyat bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning barcha jihatlari bilan uzviy aloqador bo'ladi. Bu boradagi asosiy muammoni "huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalari aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi" [14] bilan izohlash mumkin.

Jamiyatda siyosiy-huquqiy tizimning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni ham farqlash va uni tashqi va ichki omillarga ajratish mumkin.

Zamonaviy dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, taraqqiy etgan mamlakatlar yuksak darajada rivojlangan fan, texnika va texnologiyalardan iqtisodiy manfaat yoki siyosiy ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida foydalanishga harakat qilishga urinadilar. Iqtisodiy va texnologik imkoniyatlarini ommalashtirish orqali dunyoda o'zlarining siyosiy hukmronligini o'rnatishga urinish kabi holatlarda kuzatish mumkin. Ayni holatlar ta'siriga tushib qolayotgan mamlakatlarda siyosiy xushyorlik va siyosiy madaniyatning yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Chunki, ular tashqaridan kiritilayotgan turli "yordamlar" dastlabki paytda rivojlanish uchun zarur ekanligini bilgan holda keyinchalik u mamlakat va ularda yashayotgan xalqlar hayoti uchun qanday oqibatlar olib kelishi mumkinligini anglab yetishga harakat qila olmasligi bilan bog'liq" tashqi omillarda namoyon bo'ladi [5. C. 12].

O'z navbatida jamiyat siyosiy-huquqiy tizimini beqarorlashtirishga olib keladigan ichki omillarni quyidagicha izohlash mumkin: a) jamiyatdagi madaniy va siyosiy bo'linishlarning mavjudligi; b) davlat tomonidan fuqarolarning ijtimoiy ehtiyojlariga e'tiborning sustligi yoki umuman e'tiborning mavjud emasligi; v) qarama-qarshi g'oyaviy-mafkuraviy pozitsiyalarga ega siyosiy partiyalararo nolegal raqobatning kuchayib borishi; g) jamiyat hayotida milliy va insoniy manfaatlariga zid noodatiy g'oyalarning taklif qilinishi kabi omillarining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Umuman olganda, siyosiy barqarorlik – bu turli tashqi va ichki omillar ta'sirida o'zgarmasdan qoladigan siyosiy-huquqiy jarayondir. Siyosiy barqarorlik bilan davlatdagi har qanday og'ishlar ma'lum normalar doirasida tartibga solinadi. Normalar ham huquqiy, ham axloqiy bo'lishi mumkin. Ideal siyosiy barqarorlikka erishish mumkin emas. Bugun jahon hamjamiyati to'xtovsiz rivojlanmoqda. Davlat boshqaruv tizimi jamiyat siyosiy-huquqiy hayoti bilan uyg'unlikda rivojlanmoqda.

Siyosiy barqarorlik jamiyatning siyosiy tizimi (uning asosiy elementi – davlat) va o'z vazifalarini amalga oshirishning samaradorligi bilan ta'minlanadi, bu esa o'z navbatida fuqarolarning ommaviy qo'llab-quvvatlanishiga bog'liq:

1) "vaziyatni qo'llab-quvvatlash" bu davlat organlarining aniq qarorlariga jamoatchilik fikrini bildirish. Hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan siyosiy rahbarlarning ommaviy bayonotlari, siyosiy harakatlarning samaradorligi;

2) "tizimli qo'llab-quvvatlash"dan, ya'ni, jamiyatdagi mavjud kuch tuzilmalari faoliyatining ichki va tashqi siyosat tomonidan ma'qullanishini ko'rsatuvchi ijobiy baholar hamda fikrlarning barqarorligi. "Tizimli" qo'llab-quvvatlashning muhim omili – bu siyosiy rahbarlar hamda siyosiy tuzumga bo'lgan ishonch, shuningdek, turli ijtimoiy guruhlarining o'z manfaatlarini qonunlar, huquqiy, axloqiy me'yorlar va asoslarda himoya qilishga tayyorligidir [15].

Darhaqiqat, siyosiy tuzumning barqarorligi murakkab hodisa bo'lib, boshqaruv tizimini ta'minlash, fuqarolik tartibini o'rnatish, qonuniylikni va boshqaruvning ishonchliligini ta'minlash kabi parametrlarni o'z ichiga oladi [16]. Ana shu jihatdan

olganda “jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda faol qatnashayotgan insonlarni har tomonlama rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratilishi lozim” [17. C. 53].

Zamonaviy siyosiy dunyo amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, jamiyat siyosiy-huquqiy tizimi barqarorligini ta‘minlovchi yagona tasdiqlangan demokratiya modeli mavjud bo‘lmagan va bunday bo‘lishi ham mumkin emas. Shunday ekan, mamlakatning siyosiy barqarorligini ta‘minlashda milliy parlamentarizmning professionallashuvi, hokimiyat vakolatlarining demokratik prinsiplar doirasida taqsimlanishi, boshqaruvda nomarkazlashtirish siyosatining real amalga oshishi jamiyat muammolarini hal qilishning eng maqbul uslubi bo‘lib qoladi. Mamlakatimiz siyosiy-huquqiy tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, hokimiyat organlari vakolatlarining markazlashganligi, hokimiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarining konstitutsiyaviy mexanizmlarining to‘la qaror topmaganligi siyosiy-huquqiy tizimning ijtimoiy jihatdan beqaror ishlashiga olib kelayotgan edi. Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat siyosiy-huquqiy tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi: “Aholining turmush darajasi va sharoitlari yaxshilanishiga, umuman, barqarorlikka va osoyishtalikka xizmat qilishi lozim” [17. C. 61].

O‘z navbatida dunyo siyosiy-huquqiy tajribasi asosida ta‘kidlash lozimki, jamiyat siyosiy-huquqiy tizimida beqarorlik mavjud bo‘lishi aholining hokimiyatdan uzoqlashishiga, boshqaruv jarayonida siyosiy-huquqiy madaniyatning tobora pasayishiga, korrupsiyaning “gullab-yashnashi”ga, huquqni muhofaza qilish tizimining tanazzulga uchrashi va obro‘sining tushishiga olib keladi. Bu boradagi asosiy vazifa – jamiyat siyosiy va huquqiy madaniyatining individual xususiyatlari, uning ajralmas qismi bo‘lgan milliy an‘analar, qadriyatlar, me‘yorlarni yuksaltirishning istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etish joiz.

Taniqli siyosatshunos R. Dal nuqtai nazariga ko‘ra jamiyatda yangilanish jarayonlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi siyosiy ishtirokining kengayishi (ochiqlik) bilan bog‘liq bo‘lib, siyosiy barqarorlikni saqlab turish, modernizatsiya jarayonini tezlashtirish va siyosiy rejimning o‘rnatilishida o‘zaro xavfsizlikning ichki tizimini ta‘minlash bilan birga olib borilishi kerak [17. C. 58]. Shu ma‘noda, siyosiy va huquqiy madaniyat mamlakatda siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga, hokimiyati tuzilmalarining bahamjihat ishlashiga, fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirishga, ijtimoiy hayotda qonuniylik va huquqiy tartibotni kuchaytirishga, jamiyat rivoji va xalq farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Siyosiy madaniyatning siyosiy jarayonlardagi o‘rnini tahlili qilgan professor S.Otamuradov uni rivojlantirish “mamlakatimizda siyosiy barqarorlikning yanada mustahkam bo‘lishiga, asosiy maqsadimiz bo‘lgan demokratik jamiyat qurish vazifalarini bahamjihatlikda amalga oshirish imkoniyatini beradi” [5. C. 5] deb ta‘kidlaydi. Shu ma‘noda, jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyatining ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlashdagi ustuvor jihatlari sifatida “beparvolik va loqaydlikning oldini olish, xushyorlik va jonkuyarlikni tarbiyalash, mamlakat taqdiriga dahldorlik tuyg‘usini kamol toptirish” [18. B. 70]da namoyon bo‘ladi degan fikrga kelish mumkin. Jamiyat siyosiy madaniyatida o‘ziga xos o‘rin tutadigan xalqimiz milliy o‘ziga xosligi xos komponentlar bo‘lgan ijtimoiy hamjihatlik, ijtimoiy o‘zgarishlarga nisbatan vazminlik, tinchlik va fuqaroviy hamjihatlikka intilish, boshqa xalqlar madaniyati, tili, e‘tiqodiga hurmat bilan qarash, mehnatsevarlik va o‘zaro ko‘maklashish, an‘anaviylik va diniy qadriyatlarga moniylik kabi jihatlarning ustuvorligi jamiyat barqarorligining eng muhimi omillari degan xulosani qilish imkonini beradi.

XULOSA

Milliy manfaatlarni ifoda etmaydigan qonunlarsiz jamiyatda siyosiy-huquqiy tizimning barqarorligi, tinchlik va adolat tamoyillarining qaror topishi mumkin emas. Shu ma'noda konstitutsiya va qonunlar jamiyatda hamjihatlik va o'zaro murosani taqozo etadigan ijtimoiy muvozanatning ta'minlanishida huquqiy asos bo'ladi. Qonun ustuvorligiga asoslangan huquqiy madaniyat jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tashkil etilishi bilan ham bog'liq. Yuksak huquqiy madaniyatga ega muhit siyosiy tizimning normal faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratadi. Bu tizimning har bir jabhasi qonunga to'liq mos keladigan bo'lishi, demokratiya yaratgan imkoniyatlardan maqsadli foydalanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat barqarorlashuv jarayonlarining harakatlantiruvchi kuchi siyosiy jarayon yoki siyosiy tizimning elementlari bo'lib, funksional ravishda aniqlangan va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka olib keladigan o'zgarishlarni har tomonlama belgilab beradi. U jamiyatdagi barqarorlik jarayonlarini to'liq ifodalash va ular taqdim etayotgan ijtimoiy tizimdagi o'zgarishlarning asosini ko'rsatish hamda o'zgartiruvchi tendensiyalarni aniqlash vazifasini bajaradigan fenomen sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ирхин Ю.В., Зотов В.Д., Зотова Л.В. Политология: Учебник –М.: Издатель. 2002. Стр. 511
2. История политических и правовых учений. Древний мир. –М.: 1985. Стр. 170.
3. Мудрец Поднебесной. – Симферополь: Реноме, 1998. Стр. 381
4. Гидденс Э. Социология –Тошкент. Шарқ. НМИУ. 2002. – Б. 576.
5. Отамурадов С. Ёшлар сиёсий маданиятини ривожлантириш омиллари. – Тошкент. Ўзбекистон НМИУ 2015. –Б. 11.
6. Щербаква Е.К.Механизм правового воздействия. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук Саратов – 2021 Стр 38.
7. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. Тошкент. Маънавият, 2008.-Б. 464.
8. Жалилов А. А. Ўзбекистонда ёшлар сиёсий маданиятининг ривожланиш жараёнлари//сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертация –Тошкент-2020, -Б.19.
9. Кармин А.С. Культура социальных отношений. СПб.: Лань, 2000. Стр. 94
10. Султонов А.Ф. Ўзбекистон ижро ҳокимиятида бошқарув маданиятининг ривожланиш жараёнлари. // фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент. 2018. – Б.3
11. Шодиев Н.О. Сиёсий модернизация жараёнида фуқаровий фаолликни ошириш механизмаларини такомиллаштириш.// сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент- 2020. – Б.21.
12. Теория политической стабильности, общественной интеграции и организации <https://banauka.ru/4677.html>
13. Негрова М. С., Савин С. Д. О понятии политических факторов стабильности изменяющегося общества. Вестник СПбГУ. Сер. 12. 2012. Вып. 2 Стр. 240
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги ПФ-5618-сон фармони, 2019 йил 9 январь.

15. Стабильность политическая. <https://iphlib.ru/library/collection/newphilenc/document/HASH6e47209660a3b926ebfc6e>
16. Политическая культура и социально-политическая стабильность https://superinf.ru/view_helpstud.php?id=2416
17. Даль Р. Полиархия: участие и оппозиция. М.: Изд. дом Гос. ун-та — Высшей школы экономики, 2010. Стр. 288.
18. Примов Б. Ахборот оқими жадаллашувининг ёшлар маънавий-ахлоқий тарбиясига таъсири. // фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент-2020. –Б. 70.